

MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR ASOSIDA YOSHLAR  
TARBIYASI

Valiyeva Parizoda Dilshod qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Tarix fakulteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada yoshlar tarbiyasini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirishning dolzarb masalalari tahlil qilinadi. Unda milliy an'analar, urf-odatlar va ma'naviy merosning yosh avlod kamolotidagi o'rni hamda umuminsoniy qadriyatlar – insonparvarlik, bag'rikenglik, adolat va tinchlik g'oyalariining ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, globallashuv jarayonida yoshlarning ma'naviy immunitetini mustahkamlash, ularni turli yot g'oyalardan himoya qilishda tarbiyaning o'rni asoslab beriladi. Maqolada oila, ta'lim muassasalari va jamiyat hamkorligining muhim jihatlari ochib berilib, yoshlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.*

**Kalit so'zlar:** *yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlar, ma'naviyat, barkamol avlod, an'ana va urf-odatlar, globallashuv, ma'naviy immunitet, ta'lim-tarbiya, ijtimoiy muhit*

**Abstract:** *This article analyzes the urgent issues of shaping youth education based on national and universal values. It highlights the role of national traditions, customs and spiritual heritage in the development of the younger generation, as well as the importance of universal values – humanism, tolerance, justice and peace. Furthermore, it justifies the role of education in strengthening the spiritual immunity of youth and protecting them from various alien ideas during globalization. The article reveals important aspects of cooperation institutions and society, proposing practical recommendations aimed at nurturing youth as well-rounded individuals.*

**Keywords:** *youth education, national values, spirituality, well-rounded generation, traditions and customs, globalization, spiritual immunity, education and upbringing, social environment.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируются актуальные вопросы формирования воспитания молодежи на основе национальных и общечеловеческих ценностей. Освещается роль национальных традиций, обычаев и духовного наследия в воспитании подрастающего поколения, а также значение общечеловеческих ценностей – гуманизма, толерантности, справедливости и идей мира. Также обосновывается роль воспитания в укреплении духовного иммунитета молодежи в процессе глобализации и защите их от различных чуждых идей. В статье раскрываются важные аспекты сотрудничества семьи, образовательных учреждений и общества, а также выдвигаются практические рекомендации, направленные на воспитание молодежи как гармонично развитых личностей.*

**Ключевые слова:** *воспитание молодежи, национальные ценности, духовность, гармонично развитое поколение, традиции и обычаи, глобализация, духовный иммунитет, образование-воспитание, социальная среда.*

Bugungi globallashuv davrida jamiyat taraqqiyoti barkamol va ongli yosh avlodni tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lib, yoshlar har qanday davlatning kelajagi va ma'naviy tayanchidir, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash oldimizdagi muhim vazifalardan biri.

Milliy qadriyatlar xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlar va ma'naviy merosida aks etib, yoshlarning o'zligini anglashida hamda Vatanga sadoqatli farzand bo'lib kamol topishida muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, insonparvarlik, bag'rikenglik, adolat va tinchlik kabi umuminsoniy qadriyatlar jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining asosiy mezonidir, ayni damda axborotlar oqimining tez sur'atlarda rivojlanishi yoshlar dunyoqarashiga turlicha ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu sababli ham ularning ongini mustahkamlash, zararli va yot g'oyalardan asrash muhim vazifaga aylanmoqda. Bu jarayonda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish katta ahamiyat kasb etadi. Yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarning o'rni beqiyosdir, ular milliy qadriyatlar orqali yosh avlod o'z xalqining boy tarixiy merosi, madaniyati, urf-odatlar va an'analarini chuqur anglaydi. Bu esa ularda milliy o'zlikni anglash, Vatanga muhabbat, ajdodlarga hurmat kabi muhim fazilatlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Ayniqsa, oiladagi tarbiya jarayoni bu borada asosiy omillardan biri bo'lib, unda kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehr-oqibat kabi qadriyatlar yoshlar ongiga singdiriladi. Hozirda yurtimizda milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va rivojlantirishga alohida e'tibor muhim sanalmoqda, negaki turli tuman oqimlarning kuchayib borishi insonlarga ayniqsa yoshlar ongiga salbiy ta'sir qilmoqda. Xususan, ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning kuchaytirilishi, yoshlar o'rtasida milliy an'ana va urf-odatlarini targ'ib etishga qaratilgan turli loyihalar va tadbirlarning tashkil etilishi bu boradagi muhim qadamlardan hisoblanadi.

Bu esa yoshlarning milliy qadriyatlarga bo'lgan hurmatini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, yoshlar tarbiyasida umuminsoniy qadriyatlarning o'rni ham nihoyatda muhimdir. Insonparvarlik, bag'rikenglik, adolat, halollik kabi fazilatlar yoshlarni har tomonlama yetuk va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllantiradi. Ayniqsa, bugungi globallashuv sharoitida turli millat va madaniyat vakillari bilan muloqot qilish, ularning qadriyatlarini hurmat qilish ko'nikmalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan umuminsoniy qadriyatlar yoshlarning keng dunyoqarashini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda yoshlar siyosatini rivojlantirish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, zamonaviy bilim va kasb-hunar egallashi uchun keng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, iqtidorini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar yoshlarning nafaqat bilimli, balki yuksak ma'naviyatli shaxs bo'lib voyaga yetishiga xizmat qilmoqda.

Zamonaviy sharoitda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligini ta'minlash muhim masalalardan biridir, chunki aynan shu uyg'unlik orqali yoshlar mustaqil fikrlaydigan, keng dunyoqarashga ega va ma'naviy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllanadi. Bu jarayonda oila, ta'lim muassasalari va jamiyatning o'zaro hamkorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ularning uzviy faoliyati natijasida yoshlar ongida sog'lom dunyoqarash, mustahkam hayotiy pozitsiya va yuksak ma'naviyat shakllanadi. Shuni aytish joizki, milliy qadriyatlar yoshlarning o'zligini anglashiga, tarixiy ildizlariga sodiq bo'lishiga xizmat qilsa, umuminsoniy qadriyatlar ularni keng dunyoqarashli, bag'rikeng va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantiradi. Shu bois ushbu ikki yo'nalishning uyg'unligi barkamol avlod tarbiyasining asosiy omili hisoblanadi.

Hozirgi globallashuv sharoitida yoshlarning ma'naviy immunitetini mustahkamlash va ularni turli yot g'oyalardan asrash dolzarb vazifalardan biridir. Bu jarayonda oila hamda jamiyat a'zolari ham muhim rol o'ynaydi. Ularning hamkorligi orqali yoshlar ongida yuksak ma'naviyat, vatanparvarlik va mustahkam hayotiy qarashlar shakllantiriladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya. –Toshkent: O'zbekiston, 2023. (4-,14-modda).
2. O'zbekiston Respublikasi “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonun (2016-yil 14-sentabr). – Toshkent.
3. “Pedagogika” o'quv qo'llanma. – N.Xo'jayev, S.Karimov. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
4. Mirziyoyev Sh. M. “ Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. – Toshkent, O'zbekiston. 2016.
5. “Ma'naviyat asoslari” darsligi. – A.Ergashev. – Toshkent: Ma'naviyat. 2020.